

ANDIJON VILOYATIDA bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-iyul oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-iyul oylarida, Andijon viloyatida jami 7 487,5 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 113,4 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati	7 487,5	113,4
Andijon shayar	2 864,3	117,4
Xonobod shayar	101,5	100,6
Oltinko'l tumani	246,9	105,2
Andijon tumani	364,4	133,6
Baliqchi tumani	169,9	100,8
Bo'ston tumani	238,9	107,8
Buloqboshi tumani	186,1	121,3
Jalaquduq tumani	164,0	112,4
Izboskan tumani	251,0	109,5
Ulug'nor tumani	66,4	104,2
Qo'rg'ontepa tumani	163,9	104,2
Asaka tumani	205,5	107,9
Marhamat tumani	139,5	111,8
Shahrixon tumani	325,3	104,1
Paxtaobod tumani	179,9	103,0
Xo'jaobod tumani	251,3	121,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-iyul oylarida Andijon viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 77,2 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 111,6 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 16,8 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 122,0 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 6,0 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 116,1 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	290,4	361,3	15,4
o'sish sur'ati, % da	436,3	194,2	42,3
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	3582,0	895,7	434,7
o'sish sur'ati, % da	105,6	106,1	123,7
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	1908,0	-	-
o'sish sur'ati, % da	110,3	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-iyul oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 667,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,3 marta, umumiy hajmdagi ulushi 8,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, jami qurilish ishlari hajmining 65,6 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,1% ni tashkil etgan holda 4 912,4 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 25,5 % ni yoki 1 908, 0 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 110,3 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari




Hududlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Andijon viloyati	656,4	4912,4	1908,0	240,8	107,1	110,3
Andijon shayar	264,1	2518,7	81,5	416,9	109,5	111,9
Xonobod shayar	1,5	92,2	7,8	132,8	99,5	109,9
Oltinko'l tumani	2,5	187,6	56,8	115,5	103,6	134,0
Andijon tumani	133,2	184,2	47,1	315,0	101,8	94,8
Baliqchi tumani	3,5	124,9	41,6	195,5	95,2	116,6
Bo'ston tumani	13,6	199,5	25,8	846,7	102,0	105,9
Buloqboshi tumani	28,6	105,7	51,8	392,5	100,5	126,4
Jalaquduq tumani	38,5	53,9	71,5	151,2	122,7	93,5
Izboskan tumani	2,1	209,9	39,0	104,0	109,1	112,1
Ulug'nor tumani	3,6	53,8	9,0	30,6	123,1	108,8
Qo'rg'ontepa tumani	2,9	80,1	80,9	87,1	90,8	123,1
Asaka tumani	5,6	83,4	116,4	71,1	108,7	110,0
Marhamat tumani	2,7	82,1	54,7	143,0	111,5	111,0
Shahrixon tumani	2,8	266,5	56,0	46,5	104,8	107,3
Paxtaobod tumani	1,9	94,1	83,9	115,2	102,6	103,1
Xo'jaobod tumani	49,8	172,1	29,4	463,7	100,7	115,7

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Bo'ston tumani (2024-yilning mos davriga nisbatan 846,7 %), Xo'jaobod tumani (463,7 %) va Andijon shaharlarida (416,9 %) qayd etildi.

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari



IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiya va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

O.Tashxodjayeva
74 224-29-37 (6020)

Manzil:

